
YUKSAK UNVON MUBORAK BO'LSIN!

8 mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan mukofotlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni e'lon qilindi.

Unga ko'ra, mamlakatimizda mo'tabar ayol zotiga ulkan ehtirom ko'rsatish, davlat va jamiyat hayotida tutgan o'rni va nufuzini oshirish, shuningdek, o'zining samarali mehnati, boy tajribasi bilan yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida faol qatnashib, Yangi O'zbekistonda barpo etish, xalqimiz farovonligini yuksaltirish yo'lida tashabbus va ibrat ko'rsatib kelayotgan, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash, yoshlarimizni ona Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga katta hissa qo'shayotgan bir guruh xotin-qizlar yuksak mukofotlar bilan taqdirlandi.

Quvonarlisi, ular orasida Rishton tumanidagi «Olimjon Ilyosbek» mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari

Qodirova Nodira G'ofurovna ham bor. Tumandoshimiz "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi.

Ushbu yuksak unvon bilan tumandoshimizni tabriklaymiz.

2024-03-06 08:16:54